

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 372.22:371.126

ORCID: 0009-0004-1296-6475

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASH MAZMUNI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU,

*Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
kabrorxonovna@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Xususan, pedagogik faoliyatning pedagogik-psixologik jihatlarini, o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar va imkoniyatlar tahlil qilingan va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda psixologik yondashuvlarning ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kasbiy kompetentlik, pedagogik faoliyat, psixologik imkoniyatlar, ta'lim samaradorligi.

СОДЕРЖАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития профессионально-педагогической компетентности будущих учителей начальных классов. В частности, анализируются психологические аспекты педагогической деятельности, современные подходы и возможности повышения уровня профессиональной компетентности учителей, а также подчеркивается значение психологических подходов в развитии профессиональной компетентности учителей начальной школы.

Ключевые слова: учитель начальных классов, профессиональная компетентность, педагогическая деятельность, психологические возможности, эффективность обучения.

PROFESSIONAL TRAINING CONTENT OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Abstract: This article examines the development of professional and pedagogical competence of future primary school teachers. In particular, it analyzes the psychological aspects of pedagogical activity, modern approaches and possibilities for increasing the level of professional competence of teachers, and emphasizes the importance of psychological approaches in the development of professional competence of primary school teachers.

Key words: primary school teacher, professional competence, teaching activity, psychological capabilities, teaching effectiveness.

KIRISH. Hozirgi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bu o‘qituvchilarni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlashdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, bugungi ta’lim jarayonining sifatini oshirishni ta’minlaydi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki ularning amaliyotda samarali qo‘llanilishini ham talab qiladi. Shu bilan birga, pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining psixologik tayyorgarligiga bog‘liq. Yurtimizda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 11-maydagi “Ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish” to‘g‘risidagi PF-81-son farmonida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularning shaxsiy va professional o‘sishini ta’minlovchi motivatsion tizimlar yaratishni ko‘zda tutiladi.

Kasbiy kompetentlik - bu shaxsning o‘z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishini anglatadi. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi ularning pedagogik faoliyatida zarur bo‘lgan asosiy kompetentliklarni rivojlantirishga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun psixologik imkoniyatlar uning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishda muhim ahamiyatga ega. Psixologik imkoniyatlar deganda, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlar, hissiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligi tushuniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. V.I. Baydenko “kasbiy kompetentlik” tushunchasini quyidagicha tavsiflagan: o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomik va egiluvchanlik xususiyatlarga ega bo‘lish; kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish; insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko‘nikmalarning integrallashgan birlashuvi; faoliyat mezoni (sifat o‘lchovi), qo‘llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o‘z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarni umumlashtirgan holda V.I.Baydenko kasbiy kompetentlikni ish-faoliyat talablariga mos ravishda harakat qilishga, duch kelinadigan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga, shu bilan bir qatorda o‘z ish-faoliyati natijalari, ya’ni mos ko‘nikma va malaka, texnik usullarni baholay olishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Psixologik jihatdan tayyorlangan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan individual yondashuvni amalga oshiradi, stressli vaziyatlarni boshqara oladi, bolalarning qiziqishlarini va ehtiyojlarini to‘g‘ri baholaydi va shu orqali o‘quvchilarda motivatsiya va o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantiradi. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi psixologik vositalardan foydalanish mumkin:

- Refleksiya va o‘zini tahlil qilish: O‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib, kamchiliklarini aniqlashi va ularni tuzatishga harakat qilishi kerak.

- Treninglar va seminarlar: O‘qituvchilar uchun maxsus psixologik treninglarni tashkil qilish, ularning kommunikativ va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Motivatsiyani shakllantirish: O‘qituvchining o‘z faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali uning psixologik barqarorligini ta‘minlash mumkin.

Kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun psixologik jihatdan quyidagi imkoniyatlar mavjud:

1. Motivatsiyani shakllantirish.

O‘qituvchilarni kasbiy o‘sishga undash uchun ularning ichki motivatsiyasini rivojlantirish muhim. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning o‘zlarini kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli his qilishlari ularda yangi bilimlarni o‘rganishga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

2. Shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash

Psixologik treninglar, stressni boshqarish texnikalari va o‘zini anglash mashg‘ulotlari o‘qituvchilarda kasbiy o‘ziga ishonch hosil qilishga yordam beradi.

3. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish muhim. Bu psixologik treninglar orqali rivojlantirilishi mumkin.

4. Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash

Psixologik jihatdan o‘qituvchilarning yangi texnologiyalar va metodlarni qo‘llashga bo‘lgan qo‘rquvini yengish uchun motivatsion yondashuvlar qo‘llaniladi. Bu orqali ular o‘z faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘ladilar.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining professional faoliyatida, shaxsning psixologik jihatlariga asoslanadi. Ushbu jarayon o‘qituvchining o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya, psixologik barqarorlik va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivatsiya asosiy psixologik omil hisoblanadi. Ishga bo‘lgan ichki va tashqi qiziqish o‘qituvchining o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochib berishiga imkon yaratadi. Shuningdek, kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi o‘qituvchining samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Bu o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan yaxshi munosabat o‘rnatish imkonini beradi. Bugungi kunda zamonaviy jamiyat ta‘lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma‘naviy va jismoniy sog‘lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. Shu munosabat bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida kasbiy

kompetentlik sifatлари ham bo‘lishi kerak. Har bir pedagogning kasbiy kompetensiyasi bo‘lib, u shaxsning yaxlit tuzilishidagi nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi. Muayyan mutaxassislik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning muvofiqlik darajasi, normativ talablar, muayyan faoliyat sohasidagi kasbiy tayyorgarlik darajalari kasbiy kompetensiyaning mazmunini tashkil qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, interaktiv dars usullaridan foydalanish raqamli texnologiyalarni joriy qilish va masofaviy ta‘lim vositalari bu jarayonda amaliy vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlantirish – bu ta‘lim tizimining sifatini oshirishning asosiy omilidir. Ta‘lim tizimida tom ma’noda o‘quvchilarga sifatli, foydali va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o‘qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish va shu bilan bir qatorda o‘quvchilarga aniq, tushunarli hamda tez yetkazib berishning uddasidan chiqib olishi zarur. Bu esa o‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatлари, pedagogik mahorati hamda kreativ qobiliyatiga ega bo‘lishi nazarda tutiladi.

XULOSA. Muhtasari aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kasbiy pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Pedagogik kompetensiyalar o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zaruriy shartdir. Innovatsion yondashuvlar, zamonaviy metodika va psixologik prinsiplar orqali bu kompetensiyalarni oshirish, o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishlariga yordam beradi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi. Shuningdek, pedagogik tayyorgarlik jarayonida psixologik jihatlar e’tiborga olinishi zarur, chunki bu o‘qituvchilarning professional rivojlanishi va o‘quvchilarga ta’siri uchun muhimdir. Kelajak avlod uchun sifatli ta’lim muhitini yaratishda bunday yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 11-maydagi “Ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish” to‘g‘risidagi PF-81-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori.
3. Белкин А.С. Компетентность, профессионализм, мастерство. Екатеринбург: Урал. гос. лед. ун-т, 2006. - 176 с.
4. Hasanboyeva O., Yo‘ldoshev Q. “Pedagogik psixologiya”. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2021.

5. Scientific theoretical and methodical journal Original paper Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari . H.A. Saipova , X.I. Obidova .2024-yil
6. Xodjayev B. “Ta’lim texnologiyalari”. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
7. Xodjayeva L. (2019). O‘zbek pedagogikasida innovatsion yondashuvlar. Pedagogika va psixologiya jurnali.
8. Vygotsky L. “Pedagogik psixologiya”. Moskva: Prosveshchenie.